

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 472 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatramov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормаматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotga yo'naltirilgan investiyalar tahlili	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'g'urta qilish xarajatlarini hisobi	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики	237
Худайбергенова Адалат Негматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	
Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A.	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv molianing ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna	
Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafruz Marufovna	
Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	
Kichik va o'rta biznes moliyaviy barqarorligining kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati.....	327
Djamalov Xasan Numanjanovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy salohiyatini baholash.....	335
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O'zbekiston turizm sektorida tog' turizmining ulushi.....	343
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
O'zbekiston respublikasida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish va bunda xorij tajribasi.....	348
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	




Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati.....	354
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va asoslash	358
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
O'zbekistonning xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash yo'nalishlari.....	362
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Turg'unova Zohida Shavkat qizi, Umida Yuldasheva	
Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish.....	367
Bobomurotova Manzura Panji qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar	372
Berdaliyev Javohir Jahongir o'g'li	
Farg'ona viloyati mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holati tahlili	379
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Проблемы охраны окружающей среды и формирования «зеленой экономики»	389
Ёдгорова Мухайё Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....	392
Naubetova Ziyada Niyet kizi	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....	397
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri	402
Kuvatova Dinara Anvarovna	
Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari	406
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....	411
Sagimbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek	
The function and value of commercial banks in fostering capital market growth	416
Isakov Janabay Yakipbaevich	
Финансовое моделирование устойчивых стратегий: роль esg-факторов в оценке стоимости предприятия	422
Юлдошева Гулноза Абдинабиевна	
Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati	427
Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li	
Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	432
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....	439
Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna	
Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati	444
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zebaxon Shukrilla qizi	
Tourism management in china and uzbekistan: comparative insights into heritage, policy, and post-covid recovery (2019–2026)	449
Wu Liyun, Akbarov Bekhzodkhon	
Uzbekistan - china relations at 30: toward a sustainable and inclusive strategic alliance	455
Tan Jing, Doniyorova Zukhra Alisher qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	462
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo	



Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati	467
Bahodirova Mohigul	



BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING MAMLAKATIMIZDA SO'NGGI YILLARDAGI OSHIB BORAYOTGAN AHAMIYATI



Bahodirova Mohigul

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“IMC Krems transmilliy dasturlari”
kafedrasida katta o'qituvchisi

mohigul90@mail.ru

ORCID: 0009-0000-3782-2356

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tushunchalari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda O'zbekistonda keyingi yillarda bu sohalarga berilayotgan e'tibor ilmiy tahlil qilinadi. Mamlakatimizda yashil texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni ekologik barqaror yo'l bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar asosida, ularning samaradorligi, dolzarbligi va istiqbollari yoritiladi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik siyosat, O'zbekiston, innovatsiyalar, atrof-muhit, resurslar.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the concepts of sustainable development and green economy, their interrelationships, and the attention paid to these areas in Uzbekistan in recent years. Based on the measures taken in our country to introduce green technologies, protect the environment, and ensure economic growth in an environmentally sustainable way, their effectiveness, relevance, and prospects are highlighted.

Key words: sustainable development, green economy, environmental policy, Uzbekistan, innovations, environment, resources.

Аннотация: В статье дается научный анализ понятий устойчивого развития и зеленой экономики, их взаимосвязи, а также внимания, уделяемого этим направлениям в Узбекистане в последние годы. На основе принимаемых в нашей стране мер по внедрению зеленых технологий, охране окружающей среды и обеспечению экономического роста экологически устойчивым способом освещаются их эффективность, актуальность и перспективность.

Ключевые слова: устойчивое развитие, зеленая экономика, экологическая политика, Узбекистан, инновации, окружающая среда, ресурсы.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — iqtisodiy rivojlanish bilan bir vaqtda ekologik muvozanatni ta'minlash, ya'ni resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va kelajak avlodlar uchun yashashga yaroqli muhitni saqlab qolishdir. Bu borada “barqaror rivojlanish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari jahon siyosati hamda iqtisodiyotida tobora markaziy o'ringa ega bo'lmoqda. Xususan, BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals – SDGs) nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlar uchun ham umumiy strategik



yo'nalish sifatida tan olingan. Ushbu maqsadlar ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, toza energiya manbalaridan foydalanish, sanoatni modernizatsiya qilish va resurslardan samarali foydalanish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyot esa barqaror rivojlanishning iqtisodiy asosi bo'lib, u iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, yashil iqtisodiyot deganda atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish, bioxilma-xillikni saqlash va iqlim muvozanatini barqarorlashtirish kabi faoliyatlar tushuniladi (UNEP, 2011).

O'zbekiston Respublikasi ham barqaror rivojlanish strategiyasini amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etib, yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha aniq va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. 2023-yilda esa "2023–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining iqlim bo'yicha milliy harakati" tasdiqlanib, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan milliy yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjatlar yashil energetika, ekologik transport, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash va organik qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlarda amaliy chora-tadbirlar ko'rishga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston BMT, UNDP, GEF, OECD kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Xususan, UNDPning "Yashil iqtisodiyot bo'yicha texnik yordam dasturi" doirasida qayta tiklanuvchi energiya, suv tejamkor texnologiyalar va ekologik infratuzilmani rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Mamlakatda ilk bor quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi boshlangan bo'lib, 2030-yilgacha energiya ishlab chiqarishning 25–30 foizini qayta tiklanuvchi manbalar tashkil etishi rejalashtirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola yozilishida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar asos qilib olindi. Tahliliy metod yordamida mavjud qonunchilik hujjatlari, strategik dasturlar, shuningdek, BMT, UNDP, UNEP, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari asosida sohadagi amaldagi vaziyat tahlil qilindi. Bu yondashuv ekologik siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ularning amaliy samarasini baholash imkonini berdi.

Statistik metod orqali esa Davlat statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Mazkur metod ekologik ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish, o'sish yoki pasayish tendensiyalarini aniqlash va bu o'zgarishlarning sabablarini tushuntirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi.

Taqqoslash metodi yordamida O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoy kabi rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Bu yondashuv xalqaro ilg'or tajribalarni aniqlash va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini baholashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, solishtirma tahlil orqali milliy siyosatdagi ustunliklar va kamchiliklar aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosalar chiqarildi.

Normativ-huquqiy tahlil esa maqolaning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, unda Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va milliy strategiyalar asosida ekologik muhofazaga doir huquqiy chora-tadbirlar chuqur o'rganildi. Bu yondashuv orqali mamlakatda sohani tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning tizimi, ularning ijrosi va samaradorligi tahlil qilindi hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirish darajasi baholandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo'nalishlarning zamonaviy iqtisodiy siyosatdagi o'rni va ahamiyatini chuqur yoritishga xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida barqaror rivojlanish kontsepsiyasi ilk bor 1987-yilda BMTning "Bizning umumiy kelajagimiz" (Our Common Future) hisobotida rasmiy tarzda taqdim etilgan bo'lib, bu kontsepsiya rivojlanish jarayonlarida nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tenglik tamoyillarini ham hisobga olish zarurligini asoslab bergan (World Commission on Environment and Development, 1987).

Milliy miqyosda ham bu mavzu bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019–2023-yillarda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" va "Energiya samaradorligini oshirish dasturi" kabi hujjatlar ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining asosiy tayanchlaridan hisoblanadi. Shu asosda O'zbekiston olimlari tomonidan barqaror rivojlanishning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil etilgan. Jumladan, iqtisodchi olim S. Nishonova (2021) o'z tadqiqotida yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini o'rgangan va bu borada xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning ahamiyatiga alohida urg'u bergan.



Shuningdek, X. Abdullayeva (2022) tomonidan olib borilgan ilmiy ishda ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish va bu jarayonlarda raqamli boshqaruvning o'rnini chuqur tahlil etilgan. Uning fikricha, innovatsion texnologiyalar va raqamli monitoring tizimlarining joriy qilinishi ekologik xavfsizlikka erishishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim va ijtimoiy ongning shakllantirishida ham barqaror rivojlanish g'oyalarining ahamiyati katta. Shu nuqtayi nazardan, B. Kadirov (2020) tomonidan maktab va oliy ta'lim tizimida ekologik tarbiya hamda yashil tafakkurni rivojlantirishga oid ilgari surilgan takliflar dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish vositasi, balki iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sifatida ham ko'rilmogda. Ilmiy manbalar ushbu jarayonni tizimli ravishda chuqur tahlil qilish, ayniqsa milliy strategiyalarni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish muhimligini asoslaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishildi. 2021–2024-yillar oralig'ida mamlakatda ilk bor yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etildi. Jumladan, 2023-yilda Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida esa 500 MVtdan ortiq shamol energetika loyihalari amalga oshirilmoqda. Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil oxiriga qadar qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga mamlakatda energiya ishlab chiqarishning kamida 15 foizini ta'minlash rejalashtirilgan. Bu esa issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yana bir muhim natija — ekologik siyosatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishidir. 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", 2022-yilda esa "Iqlim bo'yicha milliy harakat strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu hujjatlar doirasida 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini tejash, atmosferaga chiqindilarni kamaytirish va bioxilma-xillikni saqlash kabi ustuvor yo'nalishlarda aniq vazifalar belgilandi. Xususan, sanoat korxonalarining ekologik sertifikatlanishi majburiylashtirildi, chiqindi gazlar monitoringi kuchaytirildi va "yashil sertifikat" tizimi joriy etildi.

Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki va Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar O'zbekistonda yashil loyihalarga 2020–2024-yillarda umumiy qiymati 2 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag' ajratgan. Ushbu mablag'lar, asosan, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv infratuzilmasini yaxshilash va ekologik transport vositalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Masalan, Toshkent shahrida elektromobillar uchun ilk zaryadlash stansiyalari tizimi yaratildi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ham barqaror va ekologik toza yondashuvlar joriy qilinmoqda. Organik dehqonchilik, tomchilatib sug'orish texnologiyasi, agrolandshaftni muhofaza qilish kabi ilg'or usullar tobora keng qo'llanilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, respublika bo'yicha tomchilatib sug'oriladigan yerlar maydoni 1 million gektardan oshdi. Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2021–2024-yillar oralig'ida 700 million tup daraxt va butalar ekildi. Ushbu tashabbus nafaqat ekologik barqarorlikni, balki bioxilma-xillikni saqlash hamda atmosfera ifloslanishini kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Barqaror rivojlanish g'oyalarining ommalashuvi uchun ekologik ta'lim alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatga oid maxsus darslar, seminarlar va loyiha ishlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2023–2024-o'quv yilidan boshlab ayrim oliygohlarda "Yashil iqtisodiyot asoslari" fani alohida kurs sifatida joriy etildi. Bundan tashqari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan "Yashil maktab" loyihasi amalga oshirilib, minglab yoshlar ekologik loyihalarda faol ishtirok etmoqda.

Yana bir muhim natija — ekologik holatni kuzatish va baholashda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdir. Ekologik monitoring tizimlari yangilangan bo'lib, dronlar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari hamda avtomatlashtirilgan sensor tizimlari orqali havo, suv va tuproq sifatining doimiy kuzatuvini yo'lga qo'yilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida "Yagona ekologik axborot tizimi" shakllantirilib, aholiga va mutasaddi tashkilotlarga ochiq ma'lumotlar bazasi taqdim etilmoqda. Bu esa barqaror rivojlanish jarayonining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Quyidagi infografikada O'zbekistonda 2021–2024-yillarda yashil iqtisodiyot yo'nalishida erishilgan asosiy natijalar aks ettirilgan (1-rasm).



O'zbekistonda yashil iqtisodiyot sohasidagi asosiy natijalar (2021–2024)



1-rasm. O'zbekistonda 2021–2024-yillarda yashil iqtisodiyot yo'nalishida erishilgan asosiy natijalar

So'nggi yillarda O'zbekistonda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham salmoqli natijalar bermoqda. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan dalillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yashil energetika, ekologik qonunchilik, moliyaviy instrumentlar, ekologik ta'lim, qishloq xo'jaligidagi ekologik yondashuvlar va monitoring tizimlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda.

Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor kuchaygani O'zbekistonning xalqaro iqlim majburiyatlariga sodiqligini namoyon etadi. Ushbu salohiyatning bosqichma-bosqich ishga solinishi global isish oqibatlarini yumshatish hamda energetik mustaqillikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. 2023–2024-yillarda ishga tushirilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobiga energiya ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada ortgani O'zbekistonni mintaqaviy ekologik yetakchilik sari yetaklamokda.

Ikkinchidan, muhim huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularga asoslangan strategik dasturlar yashil iqtisodiyotni tizimli asosda rivojlantirish imkonini bermoqda. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda "Iqlim bo'yicha milliy harakat strategiyasi"da belgilangan maqsadlar nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Ushbu strategik yondashuvlar xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda va boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun namuna bo'la oladi.

Uchinchidan, xalqaro moliyaviy institutlarning faol ishtiroki O'zbekistonda barqaror rivojlanish uchun ishonchli investitsion muhit shakllanganidan dalolat beradi. Yashil moliyalashtirish sohasidagi taraqqiyot energetika, transport va chiqindilarni boshqarish yo'nalishlaridagi amaliy natijalar bilan mustahkamlanmoqda. Biroq bu borada investorlar uchun ma'lumotlarning ochiqligi, monitoring tizimlarining samaradorligi va mahalliy mutaxassislar salohiyati kabi omillar yanada chuqurroq e'tiborni talab etadi.

To'rtinchidan, ekologik ongni oshirishga qaratilgan ta'limiy tashabbuslarning kengayishi kelajak avlodlar ongiga barqaror rivojlanish qadriyatlarini singdirishda muhim vositaga aylanmoqda. "Yashil maktab" va "Yashil iqtisodiyot asoslari" kabi dasturlar orqali yoshlarning ekologik madaniyati shakllanmoqda. Bu esa uzoq muddatda ijtimoiy ongda barqaror hayot tarzi va mas'uliyatli iste'mol tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida ekologik uslublarning keng qo'llanilishi, xususan, tomchilatib sug'orish va agrotexnik choralar suv resurslaridan oqilona foydalanishga olib kelmoqda. Bu nafaqat ekologik muvozanatni tiklash, balki mahsuldorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Monitoring tizimlarining avtomatlashtirilishi esa barqaror rivojlanish jarayonining shaffofligini ta'minlaydi. Yagona ekologik axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida ekologik muhit holatini baholash imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa O'zbekistonning ekologik boshqaruv tizimini raqamlashtirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizda so'nggi yillarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini hayotga joriy etish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning bu boradagi harakatlari nafaqat ichki iqtisodiy va ekologik ehtiyojlardan, balki xalqaro majburiyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tiborning kuchayishi, ekologik qonunchilikning takomillashuvi, yashil moliyalashtirish vositalarining ko'payishi, qishloq xo'jaligidagi ekologik yondashuvlar, shuningdek, ekologik ongni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy dasturlar ushbu yo'nalishda tizimli yondashuv shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Yashil maktablar va ekologik ta'limni rivojlantirish dasturi. Toshkent, 2024. – 32 b.
2. Abdullayev S.Q. Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti. Toshkent, 2021. – 256 b.
3. G'aniev R.M. Yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik. Toshkent, 2022. – 312 b.
4. Karimov F.X., Toshboyeva M.B. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi. Toshkent, 2023. – 198 b.
5. Mirzayev A.T. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning rivojlanish istiqbollari. Toshkent, 2020. – 210 b.
6. Mair, J., Ritchie, B. W., & Walters, G. (2016). Towards a research agenda for post-disaster and post-crisis recovery strategies for tourist destinations: A narrative review. *Current Issues in Tourism*, 19(1), 1–26. <https://doi.org/10.1080/13683500.2014.932758>
7. Skemman. (2011). Impact of Eyjafjallajökull on tourism and international flights. Traveler shifts during volcanic eruption, digital adaptation in tourism. <https://skemman.is/bitstream/1946/8507/2/Impact%20of%20Eyjafjallaj%C5%A1kull%20on%20Tour%20%20ism%20and%20International%20Flights-2.pdf>
8. Rasulov J.S. Ekologik qonunchilik va uning zamonaviy talablari. Toshkent, 2021. – 284 b.
9. Tursunov E.N. Yashil moliyalashtirish va iqtisodiy samaradorlik. Toshkent, 2023. – 230 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>